



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 2-iyul

316-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyati hokimining 2024 yil 27 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “112” yagona dispetcherlik xizmati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 29-maydagi 304-son qarori ijrosi haqida”gi 280-6-0-Q/24-sonli qarori haqida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “112” yagona dispetcherlik xizmati faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2024-yil 29-maydagi 304-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 27 iyundagi 280-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 27 iyundagi 280-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-maydagi 304-son qarori bilan:

Raqamli texnologiyalar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi, “Hududgazta‘minot” AJ hamda “O‘zbektelekom” AKning hodisa va favqulodda vaziyatlar ro‘y berganda shoshilinch yordam ko‘rsatish uchun “112” qisqa raqam orqali fuqarolarning chaqiruvlarini qabul qilish va avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash imkonini beruvchi yagona dispetcherlik xizmati (keyingi o‘rinlarda - “112” yagona dispetcherlik xizmati)ni “O‘zbektelekom” AK “Kontakt markazi” filialining tarmog‘i, texnik uskunalari va dasturiy ta‘minotlari negizida tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi;

Belgilanishicha, “112” yagona dispetcherlik xizmati Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda “Hududgazta‘minot” aksiyadorlik jamiyatining shoshilinch xizmatlarini ma‘lumotlarni uzatishning yagona tarmog‘iga birlashtirgan holda respublikaning barcha hududlari bo‘yicha shoshilinch yordam chaqiriqlarini qabul qilish va qayta ishlash, aholiga shoshilinch yordam ko‘rsatish faoliyatini boshqarishning yagona tizimi hisoblanishi;

Quyidagilar “112” yagona dispetcherlik xizmatining asosiy vazifalari etib belgilab qo‘yilganligi:

fuqarolarning chaqiruvlarini qabul qilish va avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlash, ularga bepul asosda shoshilinch, tez va kechiktirib bo‘lmaydigan yordamni tashkil etish va ko‘rsatish;

shoshilinch yordam ko‘rsatishni boshqarish va muvofiqlashtirish;

vazirlik va idoralarning shoshilinch xizmatlari tomonidan fuqarolarga o‘z vaqtida yordam ko‘rsatilishi yuzasidan tizimli nazorat yuritish;

vazirlik va idoralarning shoshilinch xizmatlari o‘rtasida yaqindan axborot almashinuvi bo‘yicha tezkor o‘zaro hamkorlikni ta‘minlanish;

quyidagilar:

“112” yagona dispetcherlik xizmatini respublika hududlarida ishga tushirish bo‘yicha idoralararo ishchi guruh tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

“112” yagona dispetcherlik xizmatini respublika hududlarida ishga tushirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq;

“112” yagona dispetcherlik xizmati to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;  
belgilab qo‘yilishicha:

a) “112” yagona dispetcherlik xizmatini tashkil etish va uning samarali faoliyat yuritishini ta‘minlash Raqamli texnologiyalar vazirligiga yuklatilganligi;

b) quyidagi xarajatlar:

“112” yagona dispetcherlik xizmatini ishga tushirish va takomillashtirish — “O‘zbektelekom” AKning mablag‘lari, bunda, mablag‘larning yetishmagan qismi — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-sentabrdagi PQ-318-son qaroriga asosan Raqamli texnologiyalarni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan;

shoshilinch xizmatlarni ko‘rsatishda foydalaniladigan axborot tizimlari, shu jumladan yaratiladigan axborot tizimlari, texnik vositalar va resurslarni takomillashtirish, “112” yagona dispetcherlik xizmati bilan integratsiya qilish — mazkur xizmatlarni ko‘rsatuvchi vazirlik va idoralarning o‘z mablag‘lari hisobidan;

“112” yagona dispetcherlik xizmati to‘liq ishga tushirilgandan so‘ng uning faoliyati shoshilinch xizmatlarni ko‘rsatuvchi vazirlik va idoralarning navbatchi- dispetcherlik bo‘linmalari shtat birliklari va xarajatlarini bosqichma-bosqich maqbullashtirish evaziga bo‘shaydigan mablag‘lari hamda mos ravishda ular uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida tasdiqlangan mablag‘lar va o‘z mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishi;

Bunda, Iqtisodiyot va moliya vazirligi tegishli vazirliklar bilan birgalikda kelgusi yillarda “112” yagona dispetcherlik xizmati faoliyatini moliyalashtirish uchun zarur mablag‘larni har yili ushbu vazirliklarga O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti parametrlarida nazarda tutiladigan mablag‘lar doirasida ajratilishi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi, Ichki ishlar vazirligi hamda shoshilinch xizmatlarni ko‘rsatuvchi barcha vazirlik va idoralar:

“112” yagona dispetcherlik xizmati 2024-yil 1-iyundan Toshkent shahri va Toshkent viloyati, 2024-yil birinchi yarim yilligida Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida hamda 2024-yil yakuniga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi va qolgan viloyatlarda markazlashgan tizimini bosqichma-bosqich ishga tushirilishi;

chaqiruvlarni qabul qilish va ularni qayta ishlash jarayonlarini avtomatlashtirish hamda tegishli axborot-kommunikatsiya resurslarining “112” yagona dispetcherlik xizmati bilan integratsiya qilinishi;

shoshilinch xizmatlarning navbatchi-dispetcherlik bo‘linmalarida mavjud bo‘lgan kompyuterlar va texnik vositalar texnik holatini o‘rganib chiqib, belgilangan texnik talablarga muvofiq kompyuter va zaruriy texnik vositalar bilan to‘liq jihozlanishi;

fuqarolarga shoshilinch yordam ko‘rsatishga malakali mutaxassislar jalb qilinishi;

Ichki ishlar vazirligi Malaka oshirish institutida shoshilinch xizmatlarning professor-o‘qituvchilari, malakali xodimlari va shu soha xorijiy mutaxassislarini jalb etgan holda maxsus o‘quv dasturlari asosida shoshilinch tezkor xizmatlar operatorlari va navbatchi-dispetcherlik bo‘linmalarining tegishli mutaxassislarini (qayta) tayyorlash va malakasi oshirilishi;

tezkor shoshilinch xizmatlarni ko‘rsatishda foydalanishda bo‘lgan barcha avtotransport vositalarini GPS tizimi bilan jihozlash hamda tashkil etilayotgan “112” yagona dispetcherlik xizmatlariga integratsiya qilinishini ta‘minlash yuklatilganligi;

Bunda, “112” yagona dispetcherlik xizmati va navbatchi-dispetcherlik bo‘linmalari joylashgan obyektlarni toifalangan obyektlarga qo‘yiladigan talablarga muvofiq qo‘riqlashning muhandislik va texnik vositalari, shuningdek, uzluksiz elektr ta‘minoti bilan ta‘minlash choralari ko‘rilishi;

Raqamli texnologiyalar vazirligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda hududlarda bosqichma-bosqich “112” yagona dispetcherlik xizmati faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun texnik talablarga mos keladigan bino va inshootlar ajratish yuzasidan Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritishi belgilanganligi e‘tiborga olinsin.

3. Ichki ishlar bo‘limi (D.Karimov), Favqulodda vaziyatlar bo‘limi (D.Mamajonov), Tibbiyot birlashmasi (O.Qo‘ldoshev), “Inson” xizmatlari markazi (E.Abdurahmonov) “Hududgazta‘minot” AJ

Mingbuloq tuman filiali (M.Ismoilov), “O‘zbektelekom” AK tuman filiali (U.Xashimov) manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 29-maydagi 304-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining sohalar bo‘yicha o‘rinbosarlari zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**N.Xudoyberdiyev**